

qo'llashga, shuningdek, talabalar o'rtaida innovatsion, ijodiy fikrlashni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurtlarining yuqori salohiyati qurilish kabi muhim fond yaratuvchi sohaning innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo'shish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asamatdinov M.O. *Mahalliy xom ashyo asosida suvoq qorishmasining tarkibi va xossalari shakllantirish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati.- Toshkent, 2020.*
2. Ахлиддинов и др. "Управление образованием в Узбекистане: проблемы, поиск, решения". Т. "Ec-TACIC". 1999.
3. Ilyasov A.T. *Mahalliy xom ashyo asosida samarali devorbop keramik buyumlarning strukturasi, tarkibi va xossalari shakllantirish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati.- Toshkent, TAQI, 2018.*
4. Корзикова Г.Г. Менеджмент в образовании. М., "Академия", 2008 г.
5. Najimov I.P. *Qurilish materiallari sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.- Toshkent, 2021.*
6. Сагинова О.В. – Маркетинг высшего образования: основные понятия, новые тенденции и перспективы, М. 2006.
7. <https://map.uzgeolcom.uz>

TA'LIM TIZIMINI ZAMONAVIY BOSQICHGA OLIB CHIQISH – IQTISODIY YUKSALISH KAFOLATIDIR

Davlatova Nilufar Vosiljonovna
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida ilm-fan, real ishlab chiqarish va texnika-texnologiyalarning rivojlanishi natijasida malakali, intellektual salohiyatli kadrlarga talab kuchayib bormoqda.

Qaysi bir rivojlangan mamlakatning iqtisodiyotiga razm qolmaylik, YaIMning yuqori sur'atlarida o'sib kelishiga inson kapitalining o'rni beqiyosligini ko'rishimiz mumkin. O'z navbatida, mamlakatning eksport salohiyati, innovatsion mahsulotlar, hududlarda maxsus iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi qolaversa, daromad olib keluvchi g'oyalar, patentlar, nou-xau va vechur loyihalarning yaralishida davlat tomonidan ta'lim tizimi ilmiy faoliyatini konstruktor-texnologik ta'minlash orqali erishiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi barcha mamlakatlar uchun asosiy ustuvor beriladigan tarmoq sifatida qaralmoqda. Chunki, mamlakat istiqboli, kelajagi aynan yoshlar qo'lida ekanligi barchamizga ma'lum. Aynan yoshlarning tanlagan sohalari bo'yicha zaruriy bilimlar berish, ularning ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakat tayanchi va pirovard asosi aynan pul bilan bog'liq munosabatlarda shakllanganligi tufayli

ushbu sohada mavjud bo'lgan muammolarni o'rganish va ularga yechim beradigan bo'lajak malakali kadrlarni yetishtirib berish mamlakat ta'lif siyosati bilan bog'liq jarayondir.

Ta'lif tizimi yangi bosqichga ko'tarilganligi sababli talabalarning fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish imkoniyatlari osonlashmoqda, bunday sharoitda dars jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini va dars samaradorligini pasaytirib yuboradi. Ta'lif jarayonida pedagogning kasbiy mahorati, o'z kasbiga puxta yondoshgan holda darslarni tashkil etishi bo'lajak yosh kadrlarning ko'nikma va malakalarini shakllantirilishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi [1].

Ta'lif jarayoniga, jumladan, umumjahon manfaati va inson salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga kengroq qarash zarur. Jahon iqtisodiyotining ob'yektiv haqiqati shundaki, Yaponiya tomonidan moliyalashtirilgan sport avtomobili Italiyada ishlab chiqilgan, Meksika, Fransiyada yig'ilgan va AQShda ishlab chiqilgan yuqori aniqlikdagi elektron komponentlardan foydalanadi. Hozirda bir mamlakatga tegishli mahsulotlar va texnologiyalarning vaqtin tugadi va xuddi shu jihat korporatsiyalar va umuman sanoat uchun ham amal qiladi. Bunday holatda millatning asosiy boyligi fuqarolarning malakasi va ijodiy salohiyatiga borib taqaladi.

Yangi ta'lif mazmunini shakllantirishda eng avvalo xorij tajribasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Oksord, Harvard, Kembrij, Stenford, Kaliforniya texnologiya instituti, Prinston, London Imperial kolleji va boshqa nufuzli ta'lif muassasalarida asosiy maqsad zamon talablariga mos bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqarishdadir. Bunda, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shu orqali o'quvchilarni amaliyot bilan integratsiyasini ta'minlash ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblashadi.

Shuningdek, ta'lif tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlarning o'rni juda muhim sanaladi, xorij mamlakatlari ta'lif tizimida bir qancha namunali strategiyalar mavjud bo'lib, kadrlar tayyorlashda kutilgan natijaga tezroq va sifatli tarzda olib borishga zamin yaratmoqda (1-rasm).

Zamonaviy texnologiyaga asoslangan ta'lif vositalarini puxta pedagogik amaliyotlar bilan uyg'unlashtirish talabalarga ham, umuman universitetlarga ham foya keltirishi mumkin, ammo bu ta'lif ekotizimida katta o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun bunday qayta taqsimlash insoniy, texnologik va pedagogik omillarni hisobga oladigan keng strategik rejalashtirishdan boshlanishi kerak.



1-rasm. Ta'lif tizimini rivojlantirishda innovatsion jarayonlar [2]

Xususan, yangi asbob-uskunalarni xarid qilish professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, xabardor qilish, rag'batlantirish va malakasini oshirish tuzilmasini, shuningdek, ushbu uskunani ularning pedagogik faoliyatiga joriy etishni rag'batlantirish uchun mukofotlash tizimini yaratish bilan birga olib borilishi kerak [3].

Buyuk Britaniyada bakalavr darajasida iqtisod bo'yicha universitet ta'limi mustaqil bilim sohasiga tuzilgan keng fanlar majmui bo'lib, talabaga bilimlar chegaralari, shuningdek, uni qo'llashning ayrim asosiy yo'naliishlari haqida tushuncha beradi. Iqtisodchining ish faoliyati davomidagi asosiy vazifa va qiyinchilik bu avvalgi bajarilgan ishlarni kelgusida yangicha innovatsion usulda bajara olishidir. Iqtisodchining ish prinsiplarini asos (iqtisod asoslari bo'yicha haqiqiy bilim) bo'lmasa, to'g'ri talqin qilib bo'lmaydi, shuning uchun gap ustuvorliklarda emas, balki muvozanatda bo'lib, talabalar - bo'lajak iqtisodchilarga kontseptual tushuncha beradi.

Ilg'or G'arb mamlakatlari ta'limning boshlang'ich bosqichidayoq iqtisodchining kasbiy faoliyatining innovatsion xarakterini ko'rishadi. Biroq, mamlakatimizda ta'lim ko'pincha kasbiy hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar va ijodkorlikdan ko'ra bilimlarni professor-o'qituvchilardan talabalarga o'tkazishga qaratilgan. Hozirgi holat ushbu yondashuvni qayta ko'rib chiqishni va asosiy e'tiborni kasbiy mustaqillik, ijodkorlik va etakchilikni rivojlantirishga qaratishni talab qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, ularning yosh avlod turmush tarziga ta'siri yildan-yilga ahamiyatli bo'lib borar ekan, ularning o'zgartiruvchi xususiyati butun jamiyat, jumladan, ta'lim sohasiga ham taalluqlidir. O'quv jarayonida mobil qurilmalar, simsiz tarmoqlar, bulutli saqlash va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga bo'lgan ishtiyoq ularning o'quv jarayonini o'zgartirish va samaradorligini oshirishda taqdim etayotgan ulkan imkoniyatlari bilan bog'liq.

Ta'lim sharoitida globallashuv natijasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ijobiy hodisalar:

- 1) ta'lim va kadrlar tayyorlash mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishning asosiy vositasiga aylanishi;
- 2) aholi va ishchi kuchining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadida oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va kasbiy qayta tayyorlashni kengaytirish zarurati.

Hozirgi kunda, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonlarini samarali tashkil etishda bir qancha metodlar mavjud bo'lib, ular orqali fanning mazmuni, jamiyat hayotidagi aktualligi hamda soha ichidagi muammolar va ularni bartaraf etishdagi yechimlarni topishda qo'l keladi (1-jadval).

Butun dunyodagi OTMlardagi o'zgarishlarni boshqaradigan kuchlardan ustun turish uchun texnologiya tobora ko'proq innovatsion, tejamkor yechimlar bilan bog'lanmoqda. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan ta'lim vositalarini puxta pedagogik amaliyotlar bilan uyg'unlashtirish talabalarga ham, umuman universitetlarga ham foyda keltirishi mumkin, ammo bu ta'lim ekotizimida katta

o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun bunday qayta taqsimlash insoniy, texnologik va pedagogik omillarni hisobga oladigan keng strategik rejorashtirishdan boshlanishi kerak.

1-jadval

O'quv mashg'ilotlarini samarali tashkil etuvchi metodlar [4]

<u>O'quv mashg'ulotlari texnologiyasi</u>	<u>Interfaol metodlar va ta'lif strategiyalari</u>	<u>Grafik organayzerlar</u>
Ma'ruba mashg'ulotlari ta'lif texnologiyasi	Erkin yozish. Asoslangan esse	Klaster. B-B-B chizmasi T-chizma
Seminar mashg'ulotlari ta'lif texnologiyasi	Aqliy hujum. FSMU Blist-so'rov. Blist-o'yin	Venn diagrammasi. Konsteptual jadval
Amaliy mashg'ulotlar ta'lif texnologiyasi	O'qitish bo'yicha qo'llanma. Yozma va og'zaki davra suhbati	Insert jadvali. "Nima uchun" chizmasi. "Qanday?" diagrammasi
Mustaqil ta'lif texnologiyasi	Tushunchalarni aniqlash	Baliq skeleti
Keys-stadi ta'lif texnologiyasi	Tushunchalar asosida matn tuzish	Toifalash jadvali
Loyihali ta'lif texnologiyasi	Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi	Nilufar guli

Bilamizki, ta'lif tizimini moddiy-texnik bazasini yaxshilash moliyaviy sog'lomlashtirishning strategik yo'nalishi bo'lib, budgetdan tashqari mablag', ya'ni tadbirkorlik faoliyatidan mablag'larni jalb etish hisobiga moliyalashtirishning yangi manbaidan foydalanish kerak bo'lib, bu chora oliy ta'lifni jahon miyosida rivojlantirishning ob'yektiv qonuniyati hisoblanadi.

Shunday ekan, O'zbekistonda ta'lif tizimining moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish orqali malakali kadrlar tayyorlashning yangicha boshqaruv tuzilmalarini tashkil etish va boshqaruvning zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Buning uchun, avvalo, ta'lif tizimini davlat tomondan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish hamda ta'lif muassasalariga budgetdan tashqari mablag'larni jalb etishni takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Negaki, ta'lif muassasalarini yetarlicha mablag' bilan ta'minlamay turib, sifatli ta'lif tizimini talab etish oxir oqibatda ushbu soha samaradorligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Budgetdan tashqari mablag'larni jalb qilish yo'nalishlari va usullarini qo'llashda ta'lif sohasi rivojlangan mamlakatlar ta'lif tizimini o'rganish va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoldidan kelib chiqqan holda, o'zimizga moslashtirib, xorij tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ta'lif tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan bizga ma'lumki, AQSh va Yevropa mamlakatlarida aksariyat ta'lif muassasalarini xususiy tarzda ochilgan yoki bo'lmasa mamlakatdagi birorta yirik korporatsiyalari vasiyligida ochilgan. Bu esa ta'lif muassasalarini bir nechta manbalar hisobiga moliyalashtirishiga olib keladi. Qolaversa, turli xil grantlar, turli xil ta'lif va

konsalting xizmatlari hamda homiylik asosida qo'shimcha mablag'larni jalg qilish lozim. Bu jarayonlarga bevosita ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini va ishchi-xodimlarini ham jalg qilish lozim.

Xulosa o'rnila shuni aytish kerakki, O'zbekiston ta'lim tizimiga ham mazkur tizim joriy qilinsa, ta'lim muassasalariga qo'shimcha mablag'larni kelib tushishiga hamda ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida ta'limni zamonaviy bosqichga olib chiqish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash orqali mamlakat iqtisodiyotini yuksalishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ожерелева Т. А. Информационное моделирование в образовательных технологиях //Международный журнал экспериментального образования – 2016. – №. 3-2. – С. 214-218.
2. Абрамов С. А. Использование современных образовательных технологий в процессе организации дополнительного профессионального педагогического образования //Оргкомитет. – 2023. – С. 5.
3. Савчук Г. и др. Использование интерактивных образовательных технологий по теме «трансформаторы» дисциплины «электротехника» – 2023. – Т. 2. – №. 3.
4. S.I.Mirhayitova – «Pedagogik texnologiya moduli bo'yicha» o'quv qo'llanma. Toshkent-2020. 200 bet.

THE INFLUENCE OF SUSTAINABLE TOURISM POLICY, DESTINATION MANAGEMENT, AND SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT ON IMPROVING THE QUALITY OF LIFE FOR THE PEOPLE OF UZBEKISTAN : A COMPREHENSIVE OVERVIEW

Egamnazarov Khusniddin
Tashkent State University of Economics

Sustainable tourism policy in Uzbekistan encompasses strategies for environmental conservation, cultural preservation, economic empowerment, and visitor management. It sets the foundation for responsible tourism practices that benefit the environment and local communities. Destination management initiatives coordinate efforts to ensure that tourist destinations offer authentic and enriching experiences while efficiently managing infrastructure, services, and visitor flows.

The ultimate goal of these policies and practices is sustainable tourism development, where economic prosperity, cultural respect, and environmental stewardship harmonize to enhance the quality of life for Uzbekistan's people. The paper highlights the role of tourism in creating employment opportunities, reducing poverty, and fostering community engagement. It also examines the importance of maintaining the integrity of Uzbekistan's natural and cultural assets to attract responsible and culturally sensitive tourists.

Through an interdisciplinary analysis of sustainable tourism in Uzbekistan, this study sheds light on the multifaceted benefits and challenges faced in